

PEDAGOGIKA FANI RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN SHARQ VA G'ARB BUYUK  
ALLOMA VA MUTAFFAKIRLAR

Rahimova Saboxon Ahmadjonovna

Farg'onan viloyati Bag'dod tumani

42-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14771340>

*Annotatsiya.* Pedagogika ilmi insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, bolalar va yoshlar tarbiyasi, ta'lif va tarbiya jarayonlarini o'rganadi. Ushbu sohaning rivojlanishida nafaqat g'arb, balki sharq allomalari ham katta hissa qo'shgan. Ularning ta'lif va tarbiya haqidagi g'oyalari bugungi zamонавиyy pedagogikaning poydevorini tashkil etadi. Ushbu maqolada pedagogika fanining shakllknishi tarixi va zamонавиyy ta'lif tizimida sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari hamda ma'naviy merosining o'rni beqiesligi, ajdodlar g'oyasini takomillashtirish evaziga ta'lifni yuksak bosqichga ko'tarish haqida fikrlar bayon etilgan.

*Kalit so'zlar:* Pedagogika, fanning rivojlanishi, ta'lif-tarbiya, sharq mutafakkirlarining qarashlari, ma'naviy meros, ajdodlar g'oyasi, sharq dunyosi, ta'lif, tarbiya, ko'nikma, integrastiya, shakl, uslub, yuksak bilim, vosita.

GREAT SCIENTISTS AND THINKERS FROM EAST AND WEST WHO HAVE  
CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGY

*Abstract.* The science of pedagogy is an integral part of human culture, studying the processes of upbringing, education and upbringing of children and youth. Not only Western, but also Eastern scholars have made a great contribution to the development of this field. Their ideas about education and upbringing form the foundation of modern pedagogy today. This article describes the history of the formation of the science of pedagogy and the pedagogical views of Eastern thinkers in the modern education system, the incomparable role of their spiritual heritage, and ideas about raising education to a higher level by improving the ideas of their ancestors.

*Keywords:* Pedagogy, development of science, education and upbringing, views of Eastern thinkers, spiritual heritage, ideas of their ancestors, the Eastern world, education, upbringing, skills, integrastia, form, style, high knowledge, means.

ВЕЛИКИЕ УЧЕНЫЕ И МЫСЛITЕЛИ ВОСТОКА И ЗАПАДА, ВНЕШНИЕ ВКЛАД  
В РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИКИ

**Аннотация.** Наука педагогика является неотъемлемой частью человеческой культуры и изучает процессы обучения и воспитания детей и молодежи. В развитие этой области большой вклад внесли не только западные, но и восточные ученые. Их идеи об образовании и обучении составляют основу современной педагогики. В данной статье рассматривается история становления науки педагогики и значение просветительских взглядов восточных мыслителей и их духовного наследия в современной системе образования, а также идеи о поднятии образования на более высокий уровень в обмен на совершенствование образования. представлены идеи предков.

**Ключевые слова:** Педагогика, развитие науки, образование, взгляды восточных мыслителей, духовное наследие, идея предков, восточный мир, образование, воспитание, умение, интеграция, форма, стиль, высшее знание, инструмент.

### Kirish

Pedagogika - insonning hayoti davomida ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'rganadigan, jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim ilmiy yo'nalishdir. Ushbu fan yosh avlodni axloqiy, intellektual, jismoniy va ma'naviy tarbiyalash masalalarini chuqur o'rganadi. Pedagogikaning shakllanishi qadimiy davrlarga borib taqalib, uning rivojlanishi Sharq va G'arb mutafakkirlarining bilimlari va falsafiy qarashlari orqali amalga oshgan. Har bir madaniyat va tamaddun pedagogikaga o'ziga xos yondashuv va tamoyillarni olib kirgan.

Sharq dunyosi - o'zining boy madaniyati va ilmiy merosi bilan mashhur bo'lib, uning asosiy vakillari, jumladan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy va Al-Beruniy o'z zamonasida nafaqat ilm-fan, balki pedagogika sohasining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shgan.

Sharqda tarbiya axloq va ma'naviyatga asoslangan bo'lsa, ta'lim jarayonida ustoz-shogird an'analari markaziy o'rinn tutgan. Ular o'z asarlarida insonni komillikka yetaklaydigan ta'lim-tarbiyaning asosiy jihatlarini belgilab bergan. G'arb dunyosi esa pedagogik qarashlarida ko'proq ilmiy asosga tayanib, ta'limni inson tafakkurini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rgan. Yunon faylasuflari - Sokrat, Platon va Aristotel ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratib, bilim olishning amaliy ahamiyatini ta'kidlaganlar. Keyinchalik Jan Jak Russo, Jon Dyuui, Pestalozzi kabi mutafakkirlar pedagogikani rivojlantirishda muhim o'rinn tutgan. Sharq va G'arb allomalarining pedagogik qarashlari inson kamolotini asosiy maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, ularning yondashuvlari bir-biridan farq qiladi. Sharqda axloq va ma'naviyatning ustuvorligi ta'kidlangan bo'lsa, G'arbda tafakkur va ilmiy bilimlarni rivojlantirish birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bu ikki mintaqaning pedagogik merosi bugungi kunda ta'lim tizimini boyitib, insoniyatning ma'rifiy taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metod**

Buyuk mutaffakir olimlarimizdan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir.

Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, SHarq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi". Jahon ilm-ma'rifikating buyuk namoyandası Abu Abdulloh Muxammad ibn Muso alXorazmiy matematika fani sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi va pedagog uslubiyatchi olim sifatida «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala» («Al-jabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») asarida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumi yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumi usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. Buyuk mutafakkir Muxammad Muso al-Xorazmiy bilimlarni egallashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ta'limda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, savol-javob, babs-munozara kabi ta'lim usullaridan keng foydalangan holda talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish to'g'risida to'xtalib: «... sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa xaqiqiy bilishning muhim tomonini bayon etadi.

Axmad Al-Farg'oniy arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyot, riyoziyot va jug'rofiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda Ahmad al-Farg'oniyning xizmati katta. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang'ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qo'shdi. O'z davridagi aniq fanlarning deyarli barcha sohalarida tadqiqotlar olib borib, yuzga yaqin asar yaratgan al-Farg'oniyning faqat sakkizta asari bizgacha etib kelganligi ma'lum. Al-Farg'oniyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'zining "Yulduzlar ilmi usuli kitobi" asarida I asrda yashab o'tgan mashhur Klavdiy Ptolemyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan "Almagast" asaridagi talay xatolarni aniqlab, to'g'rilab bergen.

Buyuk olim Imom Buxoriy o'zining axloqi bilan bizga namuna bo'lgan inson. Go'zal namunaligi, muruvvatliligi, diyonatligi, saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila farq qilgan

sha[s. Shuningdek, alloma juda o'tkir zehn egasi va yodlash qobiliyatları kuchli bo'lgan, ilmma'rifatga bo'lgan kuchli ishtiyoqi bilan tanilgan. Buxoriy hazratlarining cheksiz ilmiga bo'lgan muhabbatı barchani hayratda qoldiradi. Hadis ilmiga bo'lgan intilish, ularning to'plashga qaratilgan yuksak e'tibor bu kabi din ilmining inson ruhi va qalbini poklovchi ekanini va ilmiga bo'lgan qat'iyatligini ko'rsatib beradi. Og'ir va mashaqqatli yillarni bosib o'tsada, biz avlodlarga o'zlarining boy merosini qoldirgan. Bu nodir meros bo'lgan asarlarning soni 20tadan ortiqdir.

Ulardan eng sahih hadislar jamlangani "Sahih ul-Buxoriyidir. Shuningdek, "At-tarix al-avsat", "At-tarix assag'ir", Al-adab al-mubrad", "Barr ul-volidayn" kabi qimmatli asarlar yozganlar. "Sahih ulBuxoriy" ning ajralib turadigan xislati shundan iboratki, hadis ilmining gultoji bo'lmish imom Buxoriy roviylarga va sanalarga alohida e'tibor qaratib, ularning ishonchli bo'lganlarini ajratib, alohida kitob shaklda keltirganlar. Bu asar o'z ichiga takrorlanadigan hadislar, bular 7275tani, takrorlanmaydigan holda esa 4 000 ta hadisni oladi.

### Muhokama

**Abu Nasr Forobiy (873–949):** Abu Nasr Forobiy Sharqning buyuk allomasi bo'lib, "Ikkinchi ustoz" (Aristoteldan keyingi) nomi bilan mashhur. U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratib, insonning axloqiy va intellektual kamolotini muhim deb bilgan. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ideallashtirilgan jamiyatda ta'lim va tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlagan.

Unga ko'ra, inson kamolotining asosi bilimdir va bu bilimlar jamiyatni yanada rivojlantiradi.

**Abu Ali Ibn Sino (980–1037):** Buyuk Sharq tabibi va faylasufi Abu Ali Ibn Sino pedagogika sohasida ham yirik iz qoldirgan. U bolalarni yoshga qarab tarbiyalash zarurligini aytib o'tgan va bilim olish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatiga urg'u bergen. Ibn Sinoning fikricha, ta'lim faqat bilim berish emas, balki axloqiy tarbiya bilan ham bog'liq bo'lishi lozim. U o'zining asarlarida yosh bolalar ta'limida o'yin va qiziqarli mashg'ulotlarning ahamiyatini alohida qayd etgan.

**Alisher Navoiy (1441–1501):** Alisher Navoiy Sharq pedagogikasining buyuk vakillaridan biri sifatida tanilgan. Uning asarlarida insonparvarlik, odob-axloq, ta'lim va tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. "Mahbub ul-Qulub" asarida Navoiy bilim va tarbiyaning bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Navoiy ta'limda ona tilining ahamiyati, bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga to'g'ri yo'nalish berish haqida fikrlar bildirgan.

**Jaloliddin Davoniy (1426–1502):** Sharqning yana bir ulug' mutafakkiri Jaloliddin Davoniy ta'lim-tarbiya va axloq masalalarida o'zining bebaho hissasini qo'shgan.

U bolalar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhim ekanligini ta'kidlagan.

Davoniyning fikriga ko'ra, ta'lif faqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki insonni har tomonlama kamolga yetkazish yo'lida xizmat qilishi lozim.

### G'arb mutafakkirlari

**Yan Amos Komenskiy (1592–1670):** Yan Amos Komenskiy pedagogika sohasida inqilobiy g'oyalarni ilgari surgan. U birinchi bo'lib "Didaktika buyuk san'ati" asarida tizimli ta'lif nazariyasini yaratgan. Komenskiy ta'lif jarayonini tabiat qonunlariga mos ravishda tashkil qilishni va barcha bolalar uchun ta'lifni umumiy qilishni taklif etgan. U bosqichma-bosqich o'qitish tamoyillarini ishlab chiqqan va didaktik printsiplarni amaliyatga tatbiq etgan.

**Jan-Jak Russo (1712–1778):** Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo bolalarning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvni taklif etgan. Uning "Emil, yoki Tarbiya haqida" nomli asari ta'lif sohasida yangi davrni boshlab bergen. Russo tarbiyaning asosiy vazifasi insonning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish deb bilgan. U bolaning tabiiy qiziqishlarini hurmat qilish va ularga erkin rivojlanish imkonini berish tarafdori bo'lgan.

**Iogann Genrix Pestalotsiy (1746–1827):** Pestalotsiy insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lif tizimini taklif qilgan. Uning ta'lif metodikasi insonning individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan edi. Pestalotsiy o'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидagi samimiy va hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor bergen.

Uning "Linfels maktabi" tajribasi ta'lifda yangi davrni boshlab bergen.

**Fridrix Frebel (1782–1852):** Bolalar bog'chasi tizimini asoschisi sifatida tanilgan Fridrix Frebel bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'lif jarayonining asosiy qismi deb bilgan. U bolalar tarbiyasida o'yin va ijodning o'rnini alohida ta'kidlab, maxsus o'yinchoqlar va metodikalarni ishlab chiqqan.

### Natijalar

#### Zamonaviy pedagogika rivojida buyuk allomalarining o'rni

Hozirgi zamon pedagogikasi Sharq va G'arb mutafakkirlarining boy merosidan ilhomlanib, rivojlanishda davom etmoqda. Axborot texnologiyalarining ta'limga joriy etilishi va o'quv jarayonlarining yangi shakllari pedagogik yondashuvlarga yangi talablarni qo'ymoqda. Shu bilan birga, Forobiy, Ibn Sino, Komenskiy va Russo kabi allomalarining insonparvarlik, bilim va tarbiya uyg'unligi haqidagi g'oyalari dolzarbligicha qolmoqda. Bugungi kunda pedagogika sohasida ijtimoiy tenglik, barqaror rivojlanish va global ta'lif masalalariga e'tibor ortib bormoqda.

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ijtimoiy-emotsional o‘qitish va ekologik ta’lim kabi yo‘nalishlar yetakchi o‘rin egallab kelmoqda. Zamonaviy pedagogika o‘zining rivojlanishida Sharq va G‘arbning buyuk allomalari tomonidan ishlab chiqilgan fundamental g‘oyalar va tamoyillarga asoslanadi. Ularning ilgari surgan pedagogik yondashuvlari va tajribalari bugungi ta’lim tizimida ham dolzarb hisoblanadi.

### **Insonparvarlik g‘oyasining davomiyligi**

Forobiy va Ibn Sinoning insonparvarlik tamoyillari zamonaviy ta’lim tizimining muhim poydevori hisoblanadi. Ular ta’limning inson kamoloti uchun xizmat qilishini ta’kidlab, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmatli munosabatlarni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan. Bugungi kundagi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish ushbu tamoyilning davomiyligidan dalolat beradi.

### **Metodik yondashuv va tizimli ta’lim**

Komenskiyning didaktika tamoyillari va bosqichma-bosqich ta’lim tizimi bugungi ta’lim metodologiyasining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. U o‘quv materiallarini oddiydan murakkabga qarab o‘rgatish tamoyillarini joriy qilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ham ushbu tamoyil asosida ish olib borilmoqda.

### **Tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish**

Jan-Jak Russo va Fridrix Frebel kabi allomalar ta’lim jarayonida bolalarning tabiiy qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta’kidlagan. Bugungi kunda bolalar bog‘chalari va maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning o‘yin orqali rivojlanishiga katta e’tibor qaratiladi. Bu Frebelning “bolalar bog‘chasi” tushunchasining zamonaviy ko‘rinishidir.

### **O‘quvchi markazli ta’lim**

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi markazli yondashuv asosiy tamoyillardan biri sifatida shakllangan. Bu yondashuvning ildizlari Pestalotsiy va Russo kabi mutafakkirlarning g‘oyalariga borib taqaladi. Ularning fikricha, ta’lim jarayoni o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bugungi kunda individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish va shaxsiy rivojlanish dasturlarining tatbiq etilishi ushbu tamoyilning amalda qo‘llanilishini tasdiqlaydi.

### **Axloqiy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar**

Alisher Navoiy va Jaloliddin Davoniy axloqiy tarbiya va ma’naviy qadriyatlarni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rgan. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) dasturlarida davom ettirilmoqda.

### Axborot texnologiyalari va innovatsiyalar

Zamonaviy pedagogika mutafakkirlar g‘oyalarni axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirib, innovatsion ta’lim yondashuvlarini joriy etmoqda. Masofaviy ta’lim, interaktiv o‘quv resurslari va raqamli metodikalar Komenskiy va boshqa allomalarining ta’limni ommalashtirish g‘oyalarni amalda amalga oshirishga imkon berdi.

### Barqaror rivojlanish uchun ta’lim

Zamonaviy pedagogika insoniyatning global muammolarini hal qilishga qaratilgan barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanmoqda. Forobiy va Ibn Sinoning ta’lim orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyalari bugungi kunning barqaror ta’lim dasturlarida aks etmoqda. Bu dasturlar ekologiya, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishni o‘rgatishga yo‘naltirilgan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shaxs manfaatlari, shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish komponentlarini o‘z tarkibiga olgan kadrlar tayyorlash milliy modeliga asosan bo‘lajak pedagog yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, uning mazmunini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, ta’lim jarayonini ijtimoiylashtirish va tabaqalashtirish bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq va G‘arbning buyuk allomalari pedagogika fani rivojida katta rol o‘ynagan. Ularning g‘oyalari hozirgi zamon ta’lim tizimiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Sharq mutafakkirlari odob-axloq va insonparvarlikni ta’limning asosiy qismi deb bilgan bo‘lsa, G‘arb mutafakkirlari ilmiy yondashuv va metodikani rivojlantirishga urg‘u bergen. Har ikki yo‘nalish uyg‘unlashib, zamonaviy pedagogikaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi kunda ushbu buyuk allomalarining merosi ta’lim jarayonida hamon dolzarb bo‘lib, ularning asarlaridan olingan saboqlar pedagogik jarayonni boyitishda davom etmoqda.

### REFERENCES

1. Baxodirov R. SHark mutaffakiri. Abu Abdullox al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi. - T.: «Uzbekiston», 1995. -71-6.
2. Mahmudov Q. Ahmad YUGnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida. – Toshkent: Fan, 1972. 11-bet
3. Xoshimov K., Nishanova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «Ukituvchi», 1996. -79-82b

4. At-Termiziy. "Al-Jomi' as-sahih" asari . 4-jildi. Internet ma'lumoti.
5. Pedagogika tarixi / Tuzuvchilar: K. Hoshimov, M. Inomova, S. Nishonova, R. Hasanov.—T.: O‘qituvchi, 1996.B–10-12